


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60812600–Meliorativ gidrogeologiya
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim Davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlariga va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| | | |
|--------|--|----|
| 1. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> bakalavriat ta’lim yo’nalishining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. | Qo’llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi Malaka talabining qo’llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obektlari..... | 4 |
| 1.2.3. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar..... | 7 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar..... | 8 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo’yiladigan talablar..... | 8 |
| 2.3.1. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> ta’lim yo’nalishi uchun ajratilgan o’quv fanlari, bloklar bo’yicha soatlar va kreditlar..... | 9 |
| 2.3.2. | 60812600– <i>Meliorativ gidrogeologiya</i> bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim dasturining tuzilishi..... | 9 |
| 2.4. | Kvalifikatsiyalar..... | 10 |
| | Bibliografik ma’lumotlar..... | 11 |
| | Kelishuv varag’i..... | 12 |
| | Kelishuv dalolatnomasi..... | 13 |

1. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60812600–Meliorativ gidrogeologiya** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60812600–Meliorativ gidrogeologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi – texnika va texnologiyalar sohasiga oid ta'lim sohasi bo'lib litosferaning yuqori qismini geologik, gidrogeologik, injener- geologik va gidrogeologik-meliorativ sharoitini o'rganish, uning asosida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsion-meliorativ va boshqa suv xo'jaligi tizimlarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish, yer osti suvlari zahirasini ishlatish va muhofazalash bo'yicha bilimlarga, kasbiy ko'nikmalarga va mutassaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, uslublarining majmuasini o'z ichiga oladi.

1.2.2. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obektlari:

-yer, suvli qatlamlar, suv tortib oluvchi inshootlar va meliorativ tizimlar joylashgan muhit;

- yer osti suvlarini qidirish va razvedka qilish ishlari, injenerlik inshootlari va tizimlarning joylashgan muhitidagi gruntlar tavsifi;

- meliorativ tizimlar joylashgan muhit va ularni yaxshilash, yer osti suvlarini va gruntlarni o'rganuvchi tabiiy vositalar, eksperimental tadqiqot vositalari.

- shaharlar joylashgan xududida gidrogeologik sharoitga ta'sir etuvchi omillar va ularni o'rganish.

-shaharlar xududida yerlarni gidrogeologik-meliorativ holatini o'rganish va yaxshilash.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- loyihaviy-texnologik faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;

1.2.4. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha dala ishlarni olib borish, laboratoriyada yer osti suvlari va gruntlarning xossa va xususiyatlarini o'rganish, yerlarning holatini yaxshilash, suv konlarini optimal rejimda va muhofaza qilingan sharoitda ishlatish, maxsus xarita va qirqimlar tuzish, o'rganilayotgan obekt bo'yicha umumlashtirilgan va hisobiy ko'rsatkichlarni aniqlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish, tadqiqot natijalarini ishlab-chiqarishga joriy qilish bilan bog'liq tadbirlar o'tkazish, shuningdek texnik vositalar, tizimlar, jarayonlar, uskunalar va materiallarni sinovdan o'tkazish, standartlashtirishda zarur bo'lgan ilmiy izlanish ishlarida ishtirok etish;

- meliorativ-gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi sohasida yurtimizda hamda xorijda erishilgan fan va texnika yutuqlarini, chop etilgan maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- faoliyat natijalarini tahlil va sintez qilish, tashkil etish va rejalashtirish, baholash, fundamental, umumkasbiy va amaliy bilimlardan foydalanish ko'nikmasi va ularga tayyorlik;

- muammolarni hal etishga va qaror qabul qilishga tayyorlik, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javobgarlik;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun tayyorgarlik ishlarida va uni bajarishda bevosita ishtirok etish;

- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

- meliorativ gidrogeologiya sohasidagi ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

- shaharlar xududida gidrogeologik-meliorativ ilmiy tadqiqotlar olib borish va ilmiy asoslash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- gidrogeologiya va injenerlik geologiyasida ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish
- gidrogeologik jarayonlarini o'rganish va amaliyotga tadbiiq qilish;
- gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi ishlab chiqarishi texnologik jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish;
- injenerlik va konstruktorlik yechimlarini amaliyotga tadbiiq qilish;
- gidrogeologik-meliorativ ekspeditsiyasi boshlig'i, texnika xavsizligi xizmat boshlig'i va boshqa bo'limlarga boshliq bo'lib ishlash qobiliyatiga ega bo'lish;
- ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini sifatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayonlar va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayoni monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni va shu jumladan yer osti suvlarini muhofaza qilish talablarga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

Loyihaviy-texnologik faoliyatida:

- loyihalash, jumladan zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib gidrogeologik va injener-geologik tadqiqotlar vazifasini belgilash, geologik va texnik topshiriqlarni hisobga olib geologiya razvedka ishlarini olib borish uchun loyihalash-smeta hujjatlarini tuzish:
- geologik, gidrogeologik va injener-geologik fond materiallarini yig'ilishini amalga oshirish va tizimlashtirish, dalada gidrogeologik va injener-geologik syomka olib borish, shuningdek, geologiya-razvedka ishlari majmuini bajarish va loyihalashtirishda informatsion texnologiyalardan foydalanish:
- geologik, gidrogeologik va injener-geologik syomkalarni amalga oshirishning asosiy texnologik yo'llari va usullarini, yer osti suvlarini va gruntni o'rganishning geofizik usullarini, quduqlarda va shurflarda geologik va geofizik tadqiqotlar olib borish:
- meliorativ gidrogeologik qidiruvlar asosida yuqori samara beradigan va takomillashgan meliorativ tizimlarni loyihalashtirish qobiliyatiga ega bo'lish,
- zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib tuzilgan loyiha asosida gidrogeologik, injener-geologik, geoekologik qidiruvlarni o'tkazish;
- gidrogeologik va injener-geologik dala tajriba ishlarini o'tkazish, olingan axborotlarni qayta ishlash va tahlil qilish:
- geologiya-qidiruv ishlarida yangi paket programmalardan foydalanib, gidrogeologik va muhandis-geologik ko'rsatkichlarni hisoblash, ularning algoritmlari va matematik ta'minotini ishlab chiqish, gidrogeologik va muxandis-geologik jarayonlar bo'yicha matematik modellarni qo'llash:
- bajarilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha faoliyatning ishlab chiqarish va texnologik masalalarini fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda kasbiy yechish:
- inson sog'lig'ini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda mehnat jarayonida xavsizlikni ta'minlash bo'yicha uslublar va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish:

- loyihaviy va ishchi texnik hujjatlarini tayyorlash, yakunlangan loyihaviy- konstruktorlik ishlarini rasmiylashtirish;
- ishlab chiqiluvchi loyihalar va texnik hujjatlarni vazifalar, standartlar, meyorlar texnik shartlar va boshqa ijro hujjatlariga muvofiq kelishini ta'minlash qobiliyatlariga ega bo'lish kerak.
- bajarilayotgan tajriba konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'z faoliyatida axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini ixtisosligiga mos ravishda qo'llash;
- meliorativ gidrogeologiya sohasida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish.
- meliorativ holati yomonlashgan shaxarlar xududida tajribaviy zovur tizimlarni ishlatishni tajribasini o'tkazish va amalda qo'llash.

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- gidrogeologik va injener-geologik tadqiqotlar loyihalarda ko'zda tutilgan geologik ishlarni zamonaviy texnika va texnologiyani qo'llagan holda bajarish;
- ishlab chiqarishda yer osti suvlari konlaridan samarali foydalanish, loyiha qilingan meliorativ tizimlarni meliorativ gidrogeologik jihatdan asoslash;
- suv tortib oluvchi quduqlarni ekspluatatsiya qilish va kuzatuv jarayonlarini avtomatlashtirish tizimini yaratish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni amalda qo'llash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish

2. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- loyiha qidiruv tashkilotlari, institutlar, bo'limlar, ekspertiza guruxlari, ekspeditsiyalarni boshqarish jarayonlarini, loyiha qarorlarini qabul qilish va optimal yechimlarini tanlash, meliorativ tadbirlarni amalga oshirish, umumiy sharoitlarni baholash va yaxshilash;
- sug'orish maydonlarida, shahar hududlarida, suv tortib oluvchi ekspluatatsion quduqlar zonasida, inshootlar joylashgan hududlarda sizot suvlarining sathini, yer osti suvlarining kimyoviy tarkibini o'zgarishi, zahiralarning sifati va miqdorini kamayib ketishidan,

gidrogeologik-meliorativ rejim kuzatuv ishlarini tashkil qilish;

– shaharlar va shahar tipidagi hududlarda shaharlar infratuzilmasini kollektor-zovur tizimlarini joylashtirish uchun joyni tanlashga, eksplutatsion rejimini optimal solish, oqova va irrigatsion suvlarini tashlash;

– yer osti suvlari va meliorativ sharoitlarda ekologik muammolarni keltirib chiqaradigan tabiiy va antropogen sabablarini miqdoriy va sifat o'zgarishlari;

– yerlarni gidrogeologik-meliorativ sharoitlari kechadigan gidrogeologik jarayonlar, ularni shakllantiruvchi omillar, gidrogeologik mintaqalar, bosimli va bosimsiz sharoitlar, yer osti suvlari rejimi va balansi, uning qismlari va ularni shakllantiruvchi omillar;

– meliorativ va gidrogeologik tizimlar loyihalari va tadbirlari uchun dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislari, ilmiy tadqiqot ishlari, meyoriy hujjatlar, malumotnomalar, xisobotlar;

– ilmiy tadqiqot ishlari;

– loyihalash jarayonida ekologik ekspertiza o'tkazish jarayonlari.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|---|--|--------------------------|
| Majburiy fanlar | 4800 | 160 |
| Tanlov fanlar | 1470 | 49 |
| Malakaviy amaliyot | 720 | 24 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 210 | 7 |

2.3.2. 60812600–Meliorativ gidrogeologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o‘tiladigan semestr |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 4800 | 160 | |
| 1.01 | XT1114 | Xorijiy til | 420 | 14 | 1,2,3 |
| 1.02 | MAT1114 | Oliy matematika | 420 | 14 | 1,2,3 |
| 1.03 | IG1104 | Injenerlik geodeziyasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.04 | FIZ1105 | Fizika | 150 | 5 | 1 |
| 1.05 | OYT1104 | O‘zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 2 |
| 1.06 | JTS105 | Jismoniy tarbiya va sport | 150 | 5 | 2 |
| 1.07 | TIL1105 | O‘zbek(rus) tili | 150 | 5 | 3 |
| 1.08 | DIN1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 3 |
| 1.09 | KKK2105 | Kimyo va kolloid kimyo | 150 | 5 | 4 |
| 1.10 | GGG2115 | Geologiya, gidrogeologiya va injenerlik geologiyasi | 450 | 15 | 4,5,6 |
| 1.11 | NM2105 | Nazariy mexanika. | 150 | 5 | 4 |
| 1.12 | AT2105 | Axborot texnologiyalari | 150 | 5 | 5 |
| 1.13 | FAL2104 | Falsafa | 120 | 4 | 5 |
| 1.14 | GME2105 | Gidrometriya | 150 | 5 | 6 |
| 1.15 | BI2105 | Burg‘ilash ishlari | 150 | 5 | 6 |
| 1.16 | MEG3105 | Meliorativ gidrologiya | 150 | 5 | 7 |
| 1.17 | GID3105 | Gidravlika | 150 | 5 | 7 |
| 1.18 | KP3104 | Kasbiy psixologiya | 120 | 4 | 7 |
| 1.19 | IM3105 | Irrigatsiya va melioratsiya | 150 | 5 | 8 |
| 1.20 | RST3105 | Resurs tejamkor sug‘orish texnologiyalari | 150 | 5 | 8 |
| 1.21 | QNQ3104 | Quduqli nasos qurilmalari | 120 | 4 | 8 |
| 1.22 | YSD3105 | Yer osti suvlar dinamikasi | 150 | 5 | 9 |
| 1.23 | HFX3104 | Hayot faoliyati xavfsizligi | 120 | 4 | 9 |
| 1.24 | MGG4110 | Meliorativ gidrogeologiya | 300 | 10 | 10,11 |
| 1.25 | GMK4105 | Gidrogeologik meliorativ kuzatuvlar va kadastr | 150 | 5 | 10 |
| 1.26 | YSZ4104 | Yer osti suvlari zaxiralari va ularni muxofazasi | 120 | 4 | 10 |
| 1.27 | GMO4105 | Gidrotexnikada modellashtirish | 150 | 5 | 11 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1470 | 49 | |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar (10 ta fan)</i> | 1470 | 49 | 4,5,6,7,8,9,10,11 |
| | | Jami | 6270 | 209 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 720 | 24 | 6,9,12 |
| | | Yakuniy davlat attestatsiyasi | 210 | 7 | 12 |
| | | Jami | 930 | 31 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-gidrotexnik

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

.kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni aniqlash, meliorativ gidrogeologiya, meliorativ holat, yer osti suvlari zahiralari, suv tortib olish tizimlari, yer osti suvlarni muhofazalash, atrof-muhitni muhofazasi, mehnatni tashkil etish, personalni boshqarish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, inson taraqqiyoti.